

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MILLIY STATISTIKA QO‘MITASI**

JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

**JIZZAX VILOYATINING
IJTIMOIY-IQTISODIY HOLATI
AXBOROTNOMASI**

**2025-YIL
YANVAR-MART**

Jizzax – 2025-y.

SO‘Z BOSHI

Jizzax viloyatining statistik axborotnomasi Jizzax viloyatining ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanishi, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlar holatini kompleks tavsiflovchi Jizzax viloyati statistika boshqarmasining choraklik nashri hisoblanadi. Statistik axborotnomada 2025-yil yanvar-mart oylari yakunlari bo‘yicha Jizzax viloyatining asosiy statistik ko‘rsatkichlari chop etilgan.

Ushbu nashrda 2017 yilning I choragidan boshlab, hisobot davri uchun statistik ko‘rsatkichlar Yevropa hamjamiyatining Iqtisodiy faoliyat turlari statistik tasniflagichiga (NACE Rev.2) asoslangan O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFUT–2) bo‘yicha shakllantirilgan va taqdim etilgan.

Shu bilan birga, mavjud iqtisodiy faoliyat turlaridan foydalanishda IFUT–2 talablari qo‘llanilgan. Xususan, foydalanilayotgan yoki qayta ishlanayotgan mahsulotlarni ularning yangi turlariga qayta shakllantirishga yo‘naltirilgan barcha faoliyat turlari ishlab chiqarish jarayonlariga kiritilgan: tog‘-ko‘n sanoati va ochiq ko‘narni ishlash, qayta ishlab chiqarish sanoati, elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash, suv ta‘minoti, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish, qurilish (tasniflagichning B, C, D, E, F seksiyalari). Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini, iqtisodiyot tarmog‘i sifatida talqin qilishdagi tafovutni bartaraf etish maqsadida, yangilangan tasniflagichda qishloq xo‘jaligi faqatgina dexqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o‘z ichiga olmay, balki o‘rmon va baliq xo‘jaliklari mahsulotlarini ham o‘z ichiga oladi (A seksiyasi “Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi”).

Shuningdek, xalqaro statistika amaliyotiga muvofiq, iqtisodiy trendlarni yanada aniqroq tahlil qilish maqsadida, yalpi hududiy mahsulot tuzilmasidagi iqtisodiy faoliyat turlarining ulush ko‘rsatkichlari yalpi qo‘shilgan qiymatga nisbatan keltirilgan (ya‘ni, YAHM hajmidan mahsulotlarga soliqlar va subsidiyalar chiqarib tashlangan).

Nashr 13 ta tematik qismlardan tashkil topgan bo‘lib, u asosiy makroiqtisodiy indikatorlarni, shuningdek yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarish, korxonalar va tashkilotlar, jumladan kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyati, investitsion faollik, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi, sanoat, qurilish, bozor xizmatlarining rivojlanish dinamikasi to‘g‘risidagi statistika ma‘lumotlarini o‘z ichiga oladi.

Statistik axborotnomada sanoat, qurilish, qishloq xo‘jaligi, transport, ichki va tashqi savdo, ulgurji va chakana savdo, mehnat bozori va demografik holat to‘g‘risidagi tahliliy ma‘lumotlar keng yoritilgan.

Dastlabki hisoblarga asosan kelgusida aniqlik kiritilishi mumkin bo‘lgan ko‘rsatkichlar keltirilmoqda.

Qisqartma va shartli belgilar

YaHM	–	yalpi hududiy mahsulot	l	–	litr
foiz	–	%	0,0	–	katta bo‘lmagan miqdor
mlrd	–	milliard	m.	–	marta
mln	–	million	–	–	ko‘rsatkichning yo‘qligi
mln AQSH doll.	–	million AQSH dollari	Ga	–	gektar
kv	–	kvadrat	t	–	tonna
km	–	kilometr	1), 2), 3).....	–	izohning mavjudligi
m	–	metr			

MUNDARIJA

Nomi	bet.
ASOSIY IQTISODIY KO'RSATKICHLAR	5
I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT	6–13
II. SANOAT	14–27
III. QISHLOQ, O'RMON VA BALIQCHILIK XO'JALIGI	28–44
IV. INVESTITSIYA VA QURILISH ISHLARI	45–59
V. XIZMATLAR	60–77
VI. TRANSPORT	78–82
VII. ISTE'MOL BOZORI	83–94
VIII. TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT	95–112
IX. KICHIK TADBIRKORLIK	113–117
X. KORXONA VA TASHKILOTLARNING MOLIYAVIY NATIJALARI	118–129
XI. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI	130–142
XII. DEMOGRAFIK HOLAT	143–154
XIII. O'RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI	155–163

Asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar
(2025- yil yanvar-mart)


	<i>Ko'rsatkichlar nomi</i>	<i>Mlrd so'm</i>	<i>2024-yil yanvar-martga nisbatan foiz hisobida</i>
	Yalpi hududiy mahsulot	8 833,7	107,4
	Sanoat mahsuloti	7 180,2	112,0
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) lari	3 730,5	103,5
	Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	5 136,2	106,5
	Qurilish ishlari	1 419,5	111,0
	Yuk aylanmasi (mln tn–km)	264,9	102,1
	Yo'lovchi aylanmasi (mln yo'lovchi.–km)	603,7	101,7
	Chakana savdo tovar aylanmasi	2 400,8	107,3
	Xizmatlar, jami	4 856,5	109,3
	Tashqi savdo aylanmasi, (mln AQSH doll.)	362,0	73,8
	Eksport	40,2	85,8
	Import	321,7	72,6
	Saldo (+,-)	-281,5	x

I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT




2023-2025- yillarning yanvar-mart oylarida viloyat yalpi hududiy mahsuloti (YaHM) (joriy narxlarda, mlrd so‘m)

Jizzax viloyatida YaHM hajmi 2025 yilning yanvar-mart oylarida 8 833,7 mlrd so‘mni tashkil etib, 7,4 % ga o‘tdi. YaHMning tarmoqlar tarkibida o‘shish sur‘atlari: qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 103,4 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 24,8 %), sanoatda 112,0 % (22,9 %), qurilishda 111,0 % (6,9 %) va xizmatlar sohasida 106,5 % (45,4 %)ni tashkil etdi. Aholi jon boshiga YaHM 5 732,8 ming so‘mni tashkil etdi va 5,3 % ga o‘tdi.



YaHMning asosiy ko‘rsatkichlari dinamikasi (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari


<i>Ko'rsatkichlar nomi</i>	<i>Mlrd so'm</i>		<i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
	<i>2024- yil</i>	<i>2025- yil</i>	
I. YaHM	7 326,2	8 833,7	107,4
<i>shu jumladan:</i>			
 Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	7 110,1	8 580,8	107,2
 Mahsulotlarga sof soliqlar	216,1	252,9	114,4
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	7 110,1	8 580,8	107,2
 Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	1 807,8	2 125,6	103,4
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	1 988,9	2 554,0	111,8
 sanoat	1 468,6	1 961,5	112,0
 qurilish	520,3	592,5	111,0
Xizmatlar	3 313,4	3 901,2	106,5
 savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 044,1	1 248,2	111,1
 tashish va saqlash, axborot va aloqa	356,1	449,4	112,6
 boshqa xizmat tarmoqlari	1 913,2	2 203,6	102,8

2025- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YaHM hajmi (joriy narxlarda, ming so‘m)

Quyida keltirilgan infografikadan ko‘rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 4 848,8 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 5,3 % ga yuqoridir.



2023-2025- yillarning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning hajmi va o‘shish sur‘atlari diagrammasi





2024-2025- yillarning yanvar-mart oylari uchun iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi
(jamiga nisbatan % da)

	<i>Ko'rsatkichlar nomi</i>	2024- yil	2025- yil
	I. YaHM, jami	100,0	100,0
	<i>Shu jumladan:</i>		
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	97,1	97,1
	Mahsulotlarga sof soliqlar	2,9	2,9
	II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	25,4	24,8
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	28,0	29,8
	sanoat	20,7	22,9
	qurilish	7,3	6,9
	Xizmatlar	46,6	45,4
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	14,7	14,5
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,0	5,2
	boshqa xizmat tarmoqlari	26,9	25,7

2025- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 97,1 % ni, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,9 % ni tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YaHM tarkibidagi ulushi 24,8 % ni, sanoat tarmog‘i 22,9 % ni, qurilish 6,9 % ni va xizmatlar sohasi 45,4 % ni tashkil qildi.






Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo‘yicha tarkibi yanvar-mart holatiga (jamiga nisbatan % da)



● Yalpi qo‘shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

2024-2025- yillarning yanvar-mart oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)




■ 2024-yil
■ 2025-yil

2025- yilning yanvar-mart oylarida YaHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 103,4 % (YaHM-tarkibidagi ulushi – 24,8 %), sanoatda – 112,0 % (22,9 %), qurilishda – 111,0 % (6,9 %), xizmatlar sohasida – 106,5 % ni (45,4 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 111,1 % (14,5 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 112,6 % (5,2 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 102,8 % (25,7 %) ni tashkil qildi.




2023-2025- yillarning yanvar-mart oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)



2025- yilning yanvar-mart oylarida YaHM deflyatori indeksi 2024- yilning yanvar-mart oylaridagi narxlarga nisbatan 112,3% ni tashkil etdi. YaHM deflyator indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoat sohasida – 119,2% va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 113,7 % qayd etildi.



Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi
(jamiga nisbatan % da)



Jumladan, savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarmoqlari tarkibidagi ulushi 2025- yil yanvar – mart oylarida – 14,5 % ni (2024- yil yanvar – martda – 14,7 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 5,2 % ni (5,0 %), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 25,7 % ni (26,9 %) tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlikning YaHM tarkibidagi ulushi (jamiga nisbatan foizda)

2025-yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning hajmi 5 668,6 mlrd so'mni tashkil etdi (2024- yilning yanvar-mart oylarida – 4 876,8 mlrd so'm). YaHMDagi ulushi 66,1 % ni (2024- yilning yanvar-mart oylarida – 68,6 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining ko'payishi bilan bog'liq.

